Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320767

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

✓ mehnat bozori institutlarini takomillashtirish, bandlikni oshirish va mehnatdan samarali foydalanish, hududiy mehnat taqsimotini rivojlantirish va mehnat resurslarini qayta taqsimlash;

✓ qishloq joylardagi dehqon xo'jaliklarini kooperatsiyalarga birlashtirish orqali, hududlarni monomahsulotlarga ixtisoslashtirish, xorijiy importyorlarning mo'tadil ravishda bir xil va katta hajmda eksport mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlash;

✓ qo'shimcha qiymat hosil qiladigan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga investitsiyalar hajmini oshirish;

✓ qishloq joylarni "qishloq mahsuloti"ga ixtisoslashtirish orqali yirik plantatsiyalarni tashkil qilish, bu sohada ilmiy salohiyat va xorijiy tajribani doimiy o'rganib borish va amaliy tajribalarni joriy qilish jarayonlarini tezlashtirish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishni to'g'ri tashkil qilish zarur deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28.01.2022 г. №УП-60.

2. Abdurahmonov K. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot/Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti davlat korxonasi, T.:2019 - 544 b.

3. Абдуллаев С.А., Мамбетжанов К.К., Маманазаров А.А. Природные и человеческие факторы увеличения национального богатства Узбекистана//Экономика и финансы (Узбекистан), 2020. - №3. - с.7-14.

4. G.Abdurakhmanova, Sh.Gaibnazarov, N.Shayusupova, D.Fayziyeva, B.Tursunov. (2020). Creating a system of control over compliance with decent work principles of the Republic of Uzbekistan.

International Journal of Advanced Science and Technology, 29(9s), 6401-6408. http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/20252

5. https://mehnat.uz/oz/employees - O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari.

6. https://stat.uz/uz/ - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi.

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH, AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA ISHSIZLIK DARAJASINI KAMAYTIRISHDA INNOVATSION ISH BILAN BANDLIKNING AHAMIYATI

Tuxtasinova Muxayo Mirzasultonovna
Farg'ona politexnika institute Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi bandligini ta'minlash buyicha amalga oshirilayotgan ishlarning natijalari tahlil qilingan, dolzarb vazifalar va muammolar o'rganilgan hamda yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsion bandlik tushunchasi yoritilib, mehnat bozorida ishsizlikni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: aholining bandligi, aholi daromadlari, aholining mehnat va tadbirkorlik faolligi, innovatsion bandlik, qishloq mehnat bozori, меҳнат бозори, меҳнат ресурслари

Respublikamizda aholining bandligini ta'minlash, real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar soni va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari

Published: 23.12.2024

Cite this article: Tuxtasinova Muxayo Mirzasultonovna (2024). Aholi farovonligini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirishda innovatsion ish bilan bandlikning ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320767


© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

bitiruvchilari bandligi, mehnat bozori mutanosibligi va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish borasida jadal amaliy ishlar bajarilmoqda.

Innovatsion yo‘nalishda bandlikni rivojlantirish strategiyasi nafaqat neoklassik qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni, balki nazariy va uslubiy darajada yangi hodisalarni tahlil qilish va tizimlashtirishni talab qiladi, bandlikni boshqarish tizimini sifat jihatdan yangi “muammolar”ni oldiga qo‘yadi, an’anaviy yo‘nalishlarga o‘zgartirishni taqozo etadi.

Prezidentimizning mamlakatimiz parlamentiga qilgan Murojaatnomasida alohida to‘xtalib o‘tilganidek, “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.” Darhaqiqat, bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Mazkur qarordan ko‘zlangan maqsad, innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion muhitni yaxshilash, ilmiy tadqiqot faoliyatining samaradorligi va sifatini oshirish, ilmiy hajmdor mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlarida raqobatbardosh ilmiy-amaliy natijalar olish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini ta’minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish va mehnat bozorini tartibga solish bo‘yicha faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib boradi. Zero, mehnat salohiyatidan foydalanish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy hayotini yaxshilash taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishning muhim manbasi bo‘lib hisoblanadi. Ish bilan bandlikning yangi turi hisoblangan innovatsion ish bilan bandlikning tarkibiy tahliliga murojaat qilish, bizga uning umumiy shakllanishini chuqurroq tushunish, murakkabligi, qaytimliligi, egiluvchanligiga oid turli darajalarining o‘zaro bog‘liqligi mavjudligini aniqlash, tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishlarni tadqiq etish va baholash, bandlik tuzilishida bo‘layotgan ob’ektiv sabablarni aniqlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda 2023 yil yakuniga ko‘ra ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamaydi. 2024 yilning 1 yanvar holatiga mehnat resurslari soni 19 million 724 ming 900 kishini tashkil etib, 2023 yilning shu davriga nisbatan 207 ming 400 kishiga (1,1 foizga) oshgan. O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi o‘rtasida ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2024-yil boshiga kelib 6,8 foizga tushdi.



Qishloq mehnat bozorida aholini bandligini ta’minlashda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli kattadir. Iqtisodiyotning bu sohalari mehnat sig‘imi ko‘p talab etiladigan, ijtimoiy mehnatni tashkil qilishning ulkan sohasi bo‘lganligi bilan ham juda ahamiyatlidir. Shu sababli ham O‘zbekistonda ularni jadal rivojlantirish uchun barcha qulayliklar yaratilmoqda.

“Innovatsion ish bilan bandlik” –bu, qishloq mehnat bozoridagi sub’ektlar tomonidan o‘zining intelektual qobiliyatidan foydalanishga asoslangan hamda optimal ish bilan bandlikka erishishni ta’minlaydigan mehnat faoliyatining takomillashgan ko‘rinishi va shakllaridir. Ish bilan bandlikning yangi turlarining namoyon bo‘lishi sifatida ish o‘rni yoki kadrlarni izlashning yangi texnologiyalari, xususiy biznesning yaratilishi, mehnat harakatchanligi, innovatsion mehnat shartnomalari, ish bilan bandlikning yangi shakllari (lizingli mehnat, ijtimoiy fondlarda bandlik, virtual tashkilotlardagi ish bilan bandlik va h.k.); distantsion ta’lim, korxonalardagi bevosita innovatsion mehnat va boshqalarni aytish mumkin. Qishloq joylarida aholining ish bilan bandligi darajasini oshirish uchun, fikrimizcha, quyidagi choralar ko‘rilishi maqsadga muvofiqdir:

- Qishloq mehnat bozoridagi haqiqiy holatni viloyat va tumanlari kesimida aniq tahlilini olib borish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha hududlarni imkoniyatidan kelib chiqib dasturlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini muvofiqlashtirish;
- qishloq joylarida ish bilan bandlikning o‘z-o‘zini band qilish, egiluvchan shakllarini (to‘liqsiz ish kuni, haftalik, kasanachilik, uy mehnati, hunarmadchilik) kengaytirish;
- qishloq joylarida tadbirkorlik hisobidan yangi ish joylari yaratishni (moliyaviy, soliq imtiyozlari berish, foizsiz kreditlar, qo‘shimcha yer maydonlari, foydalanilmayotgan quvvatlarni ijaraga berish va boshqa usullar) qo‘llab-quvvatlash;
- OTM, ITIning ushbu soha olimlari, mutaxassislari bilan bandlikka ko‘maklashuvchi markazlar o‘rtasida doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularning tajribasidan foydalanish;
- ish bilan ta’minlashdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida, ular uchun to‘liq ma’lumot va o‘z yo‘nalishlarini aniqlashda yordam bera oladigan

axborot-konsalting xizmatlarini tashkil qilish, hamda internet sahifalari, aloqa xizmatlari orqali interaktiv savol-javob o‘tkazish kerak;

- ta’lim muassasalari bitiruvchilari uchun maxsus elektron mehnat yarmarkasi ishga tushirish zarur.

Hozirgi vaqtda ish bilan band aholiga barcha yollanib ishlayotgan xodimlar, o‟quvchilar, harbiy xizmatchilar bilan bir qatorda o‟zini o‟zi mustaqil ravishda ish bilan ta‟minlaydigan fuqarolar va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‟ullanadigan fuqarolar kiritilgan. Aholining ish bilan bandlari:

a) pul bilan to‟lanadigan yoki natura holidagi haq evaziga yollanib, shuningdek o‟z faoliyati evaziga qancha muddat haq yoki daromad olishidan qat’iy nazar, foyda yoki oilaviy daromad olish uchun yollanmasdan haftasiga kamida 2 soat ish bajarganlar;

b) kasalligi yoki jarohatlanganligi tufayli, bemorlarga qarab turuvchilar; yillik mehnat ta‟tili yoki dam olish kunlarida, o‟z ish joyidan tashqarida ta‟lim olganlar; ma‟muriyat tashabbusi bilan ta‟minoti saqlab qolingan yoki saqlanmagan holda mehnat ta‟tilida bo‟lgan va boshqa shunga o‟xshash sabablar bilan vaqtincha ishda bo‟lmaganlar;

c) oilaviy yoki xususiy kichik korxonada haq olmasdan ish bajargan shaxslardan tashkil topadi. Shunday qilib, O‟zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash uchun muayyan qadam qo‟yilgan bo‟lib, bu qadriyatlar orasida eng muhimi mehnatning ixtiyoriyligidir. Endilikda ijtimoiy mehnatda ishtirok etish kerak yoki kerak emasligini tanlashdan iborat ustuvor huquq insonning o‟ziga tegishlidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, aholi faravonligini oshirish, aholini ish bilan ta’minlash darajasini oshirish uchun ko‘rilayotgan bu choralarga qaramasdan mazkur tarmoqda hali jiddiy muammolar mavjud. Agrar soha o‘z xususiyatlari–qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi, sertarmoqliligi, tabiiy omillarning ta’siri, qo‘l mehnati salmog‘ining yuqoriligi va hokazolar bilan mehnat resurslaridan foydalanishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning innovatsion yo‘li, mamlakat raqobatbardoshligining harakatlantiruvchi kuchi, aholi farovonligini oshirish, bandligini ta’minlash omili bo‘lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Аманов О.А. Қишлоқ меҳнат бозорини модернизациялашнинг асосий йўналишлари. Монография. - Тошкент: “Фан ва технология”, 2014. Б.77

2. Тошпулатов, А. (2020). Рынок рекрутинговых услуг в обеспечении занятости населения Узбекистана. Бюллетень науки и практики, 6(1), 274-277.

XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Qobulov Ozodbek O‘ktamboy o‘g‘li
Urganch davlat universiteti Biznes va boshqaruv kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xususiy tibbiyot muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasining ahimiyati, mazmuni, zarurligi va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tibbiyot, tibbiyot muassasasi, strategiya, infratuzilma, reklama.